

Washington Irving Ijodida Yoshlik Xotiralarining Aks Etishi

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna

Farg‘ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Hamidjonova Dilshoda Odiljon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Amerika adabiyotining yorqin namoyondasi Washington Irving hayoti huquqsevar boshqa oila a‘zolarinikidan keskin farq qilgan. U sayohat qilishni va tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lishni yoqtirgan. Bu esa keyinchalik uning ijodiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Washington xalq folkloridan joy olgan turli hikoyalardan ko‘p foydalangan, va ularni boyitib, yangi asarlar yaratgan. “Mudroq Adirlar Afsonasi” ana shunday asarlardan biri hisoblanadi. Kitob boshsiz chavandoz haqidagi afsonadan ilhomlanib yozilgan, va jamiyatning tabaqaviy bo‘linishi haqidagi g‘oyalarni ichiga singdirgan.

Kalit so‘zlar: Qisqa hikoyalar, afsona, satirik hikoya, gotik uslub, xalq folklori.

Amerika adabiyoti o‘zining rang-barangligi va kreativligi bilan har doim ham butun dunyoni lol qoldirib kelgan, ayniqsa, Amerika adabiyotini qisqa hikoyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu sohaning vujudga kelishi esa XIX asrda Washington Irvingning dengizorti adabiyot sahnasiga kelishi bilan chambarchas bog‘liq. Amerika qisqa hikoyachiligi otasi hisoblangan ijodkor nafaqat o‘sha davr, balki XX asr bo‘lajak yozuvchilari ijodiga ham katta ta‘sir o‘tkazgan. Biroq eng e‘tiborga loyiq jihati shuki, “Irvingni Amerikaning o‘zidan oldin Yevropa adabiyoti tanigan. Uning asarlari A.S.Pushkin, Hayne, Gyote, N.Gogol, Volter Skot kabi o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari tomonidan sevib mutolaa qilingan, Dikens, Teker, Belinskiy kabi buyuklar bilan bir davrda adabiyot maydonida ot surishgan” 1 Irving asarlari ertakka o‘xshaydi: afsunlarga to‘la, bir qarashda o‘ziga bog‘lab oladi, tasavvurga sig‘mas mahorat bilan so‘zlar raqs tushadi. Yozuvchi inson tabiatini chuqur anglaydi va asarlarida bundan mohirona foydalana oladi. Shu bois ham uning merosi bugungi kungacha ardoqlanib kelinadi, kitobxonlar qo‘lidan va qalbidan hech tushmaydi, yosh yozuvchilarga esa dars vazifasini o‘taydi.

1783-yilning 3-aprelda Nyu-Yorkning Manhattan shahrida 11 farzandning kenjasi bo‘lib tug‘ilgan chaqaloqqa otasi Jorj Washington – Amerika Qo‘shma Shtatlarining birinchi prezidenti sharafiga Washington deb ism qo‘yadi. Qonunchilik va siyosat borasida tahsil olgan katta akalaridan farqli ravishda, yosh Washington ko‘proq dengizni va sayohat qilishni sevar edi. Uni qalin va qattiq muqovali ilmiy kitoblardan ko‘ra Hudson vodiysi afsona va asotirlari, Katskil tog‘lari maftunkorligi o‘ziga ko‘proq jalb qilar edi. “U o‘tgan avlod mutafakkirlarining odatlari, urf-odatlar, e‘tiqodlari, qiziqishlari, turmush tarzi va qiyofasini ochib beruvchi rivoyatlarga qiziqqan”.² Keyinchalik bu go‘zal makonlardagi nafas uning asarlariga ham ta‘sir o‘tkazib, Amerika tarixida o‘chmas iz qoldirgan. 19 yoshlaridan boshlab Jonatan Olsteyl taxallusi ostida akasi Piterning “Tonggi xronologiya” gazetasiga insholar yoza boshlaydi. Yozuvchilikka bo‘lgan kuchli ishtiyoqi tufayli 1807-yil Jeyms Kirke Polding va uning akasi Villiam bilan hamkorlikda satirik insholar to‘plamini – “Salmagandi”ni bosmadan chiqardi. 1809-yilda esa shu yo‘nalishdagi “Nyu-York tarixi,

dunyoning boshlanishidan to nemis sulolalari yakunigacha” kitobini Didrik Nikerboker nomi ostida chiqaradi. Ikkala kitob ham kitobxonlar orasida muvaffaqiyatga erishdi. Biroq qaylig’i Matilda Hofmanning bevaqt o’limini Vashington juda og’ir qabul qildi va uzoq vaqt g’am-qayg’u asiri bo’ldi. Bu davrda “Analectic jurnalida tahrirlovchi vazifasida ishladi va 1812-yilgi Jahon urushida harbiy lavozimda xizmat qildi. 1815-yilda esa Liverpuldagi oilaviy tijorat muammolarini hal etishda qiynalayotgan akalariga ko’maklashish uchun Angliyaga ko’chib o’tishiga to’g’ri keldi. Barcha akademiklarning hamjihat harakatlariga qaramasdan, uch yil ichida biznes inqirozga yuz tutdi va Irving ishsiz qoldi. Bu qiyn moliyaviy vaziyatdan chiqish uchun yana yozuvchilikka murojaat qilishga majbur bo’ldi. Bu safar Jeffrey Kreyon taxallusi bilan qisqa hikoyalar va bir nechta insholar yozdi va ularni “Jeffrey Kreyonning surohiy kitobi” nomi ostida birlashtirib, chop ettirdi. Vashington Irving faqatgina to’qima asarlari bilan emas, balki biografik kitoblari bilan ham adabiyot rivojiga katta hissa qo’shgan yozuvchi hisoblanadi. 1828-yilda mashhur sayohatchi Kristofor Kolumbning hayoti va sayohatlarini o’rganib, “Kristofor Kolumbning hayoti va safarlari” asarini yozgan bo’lsa, 1855-va 1859-yillar orasida Jorj Vashingtonning hayotiga asoslangan biografik asarini o’quvchilarga taqdim etadi.

Vashingtonning eng mashhur asarlaridan biri bu – “Mudroq Adirlar Afsonasi”(The Legend of Sleepy Hollow). Yozuvchi yoshligida Tarri shahrida vaqtinchalik yashashiga to’g’ri keladi. Bu yerdaligi vaqtida Mudroq Adirlar nomi bilan tanilgan manzil va undagi afsonalar haqida yetarlicha tinglaydi. Keyinchalik esa uni o’z fantaziyasi bilan boyitib, shu asarni yozadi. Asar Hudson vodiysi ajib manzaralari va tabiatining ta’rifi bilan boshlanadi. Bosh qahramon – Ikabad Kreyn, mehribon va bilimli o’qituvchi Terri shahriga bolalar uchun maktab ochishga keladi. O’z o’quvchilariga musiqa san’atining nozik jabhalarini o’rgatar ekan, Ikabad qishloqdagi mulkdor dehqonlardan birining sohibjamol qizi Katrina Van Tessel bilan ko’rishib qoladi va unga oshiq bo’ladi. Musiqa darslari orqali qizning yuragiga yo’l izlaydi. Ammo Katrina malohatining boshqa bir qurboni Brom Van Brunt ham qizga yetishish uchun harakat qilayotgan edi. Ma’shuqasi tomonidan bazmga taklif etilgan Ikabad katta tayyorgarlik bilan tashrif buyuradi. Bazm vaqtida qishloq aholisi bilan xushmuomala bo’lish va o’zining ajabtovur raqslari bilan Katrinaning e’tiborini jalb qilishga urinadi. Odatga ko’ra tungi mehmondorchilikni qo’rqinchli va vahimali hikoyalar aytish bilan yakunlashadi. Qishloq aholisi unga boshsiz chavandoz haqidagi afsonani hikoya qilib berishadi. Unga ko’ra, boshidan ayrilgan chavandoz kechalari ko’z va og’iz uchun teshiklar o’yilgan oshqovoqni egar qoshiga qo’ndirib sayr qiladi. Kayfiyati ko’tarinki Ikabad uyga qaytayotganida orqasidan ot tuyoqlari tovushini eshitadi. Tashvishga tushib, bir necha bor gapirib ko’radi, savol beradi, ammo chavandoz biro og’iz ham javob bermaydi. Chinakamiga qo’rquvga tushgan o’qituvchi otini tezlatib, qochishni boshlaydi. Orqadagi soya ham uni quvlashni boshlaydi va shundagina uni ta’qib qilayotgan soya boshsiz chavandoz ekanligini angelaydi. Ikabad endigina qochib qutuldim deb o’ylaganida esa, chavandoz o’zning oshqovoq boshini uloqtiradi va u o’qituvchining naq boshiga tegadi. Tongda qishloq aholisi Ikabadga nima bo’lganligi bilolmay hayratda qolishadi va bu ham endi Mudroq Adirlarning afsonalaridan biriga aylanadi.

“Mudroq Adirlar Afsonasi” Amerika tarixidagi dastlabki qisqa hikoyalardan biridir. Hikoya gotik uslubning yorqin namunasi bo’lib, qo’rquv va vahimaning turli shakllarini yoritishdan tashqari qishloq va shahar hayotini ham solishtiradi. Xalq og’zaki ijodi jozibasini ko’rsatib bergan Vashington hikoyani sirlilik va vahimaga to’ldiradi. Kitobxon mutolaa davomida o’zini sirlar vodiysida yashayotgandek his qiladi. Asardagi protaganist - Ikabad shahar hayotida yashashga o’rgangan, garchand yosh avlodga musiqa san’atini o’rgatsa-da, o’zida iste’doddan nishon yo’q, bilimlari ham shubha ostidagi o’qituvchi. Ikabad arvohlar, jodugarlar, iblis va jinlar to’g’risidagi hikoyalarni o’qishdan zavqlanuvchi, dunyoning mo’jizaviy va g’aroyibotlarga boy ekanligiga ishonuvchi inson. Bundan tashqari, u Katrinani nikoh bilan yakunlanishiga umid bag’ishlovchi munosabatlarga undaydi, ammo bir vaqtning o’zida keyingi hayoti haqida mulohaza yuritish o’rniga bekorchi orzular bilan xayol surishdan nariga o’tmaydi. Barcha kamchiliklariga qaramasdan, Greven Ikabadni keyinchalik revolyutsiyani amalga oshirishga qodir obraz sifatida ko’radi. 3 Professor Mukerji esa: “Ikabadda hali kashf etilmagan qobiliyatlar bor” – deb yozadi. 4

Sohibjamol Katrina esa jamiyatdagi yuqori tabaqa vakillarining yig'ma obrazi. Unga oila qurish uchun ikki insondan birini tanlash imkoniyatigina beriladi, biroq ikkisi ham bunga munosib bo'lmagan nomzodlar. Biri butun fikri-xayoli sharpalar va iblislar bilan to'la bo'lgan uysiz o'qituvchi, ikkinchisi esa yorqin kelajagi tuman orasidagi mas'uliyatsiz ishchi. Katrina ikki erkakning u uchun urush olib borishlarini kuzatishdan zavqlanadi, chunki doimo e'tibor markazida bo'lish unga yoqib kelgan. Qudrat va e'tiborga bo'lgan ochko'zligi tufayli ikkisiga ham uzluksiz aloqada bo'lishga imkon bermay, ularning kelishmovchiliklaridan rohatlanib yuradi.

Washingtonning Terri shahrida shaxsan bo'lgan, uning afsonalarini mahalliy aholidan bevosita tinglagan. Aynan shu bois ham bu hikoyalar unga bo'lakcha ta'sir etgan va ularni qayta ishlab yozishga undagan bo'lsa kerak. Darhaqiqat, bunday turdagi afsona va rivoyatlarni har kim ham boshqalarga ulashgisi, ko'proq insonlarni xabardor qilgisi keladi. Boshsiz chavandoz haqidagi hikoya qo'shilgan "Mudroq Adirlar Afsonasi" ham bu sohada ajoyib natija bo'lgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Irving Amerika adabiyotida o'z o'rni va hurmatiga ega yozuvchilardan biri. Har qanday asari jozibasi va sirililigi bilan o'ziga jalb qiladi. U har bir kitobga alohida qat'iyat va mehr bilan yondashadi. Tabiatsevar ijodkorning merosi nafaqat ona tabiat malohatiga to'la, balki chuqur falsafiy qarashlarni ham o'zida mujassam etgan. "Mudroq Adirlar Afsonasi" esa uning qay darajada xalq ijodini sevganligi va mahorat bilan foydalana olganligini isbotlaydi. Gotik adabiyotning ruhini nozik tushungan Washington uni xalq folklori bilan bog'laydi. Shu bois ham uning bu asari hanuzgacha kitobxonlar qo'lidan tushmay keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Rasulova. 2020. "The First Period of Washington Irving's Creation" "International Journal of Academic Research in Business, Arts and Science" 44-51
2. S. Rasulova. 2022. "Vashington Irving asarlarida satiraning uslubiy xususiyatlari". Zenodo. 349-351
3. Greven. 2004. "D. Troubling our heads aout Ichabad: "The Legend of Sleepy Hollow", Classic American Literature, and the sexual politics of homosocial brotherhood". "American Quarterly". 83-110
4. J. Mukherji. 2019. "Washington Irving and his contribution in American Literary History" Pramana Research Journal. 181-185
5. The legend of Sleepy Hollow by Washington Irving. Summary and Analysis. <https://youtu.be/rMXsvg0ZDGk?si=8C0J2VzFWIICAcW>
6. Washington Irving: Biography, Works and Style. https://youtu.be/pa_g9KZI1QE?si=8UxcWYFwQITHGjPz